

XORAZMNING IX-XV ASRLAR SHAHARLARI MANBASHUNOSLIGI VA TARIXSHUNOSLIGI.

Ro‘ziboyeva Maftuna Normurodovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining tarix yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Mazkur mavzu Xorazmning IX–XV asrlardagi shaharlari tarixini manbashunoslik va tarixshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganishga bag‘ishlangan. Unda o‘rta asr yozma manbalari, jumladan, arab, fors va turkiy tillarda yaratilgan asarlar asosida Xorazm shaharlarining siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti yoritiladi. Shuningdek, arxeologik ma’lumotlar hamda zamonaviy tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar tahlil qilinadi. Ishda Xorazm hududidagi muhim shaharlarning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va ularning Markaziy Osiyo tarixidagi o‘rni ochib beriladi. Tarixshunoslik jihatidan esa mazkur masalaning turli davrlarda qanday o‘rganilgani, ilmiy yondashuvlar evolyutsiyasi va mavjud qarashlar solishtirilib tahlil etiladi. Natijada, Xorazm shaharlari tarixini yoritishda manbalar ahamiyati va ularni ilmiy o‘rganishning dolzarbligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: Xorazm, IX–XV asrlar, o‘rta asr shaharlari, manbashunoslik, tarixshunoslik, yozma manbalar, arab manbalari, fors manbalari, arxeologik tadqiqotlar, shahar madaniyati, iqtisodiy hayot, savdo yo‘llari, siyosiy tarix, ilmiy meros, tadqiqot usullari

KIRISH

Xorazm qadimdan Markaziy Osiyoning muhim madaniy va iqtisodiy markazlaridan biri sifatida tanilgan. Ayniqsa, IX–XV asrlarda bu hududda shahar hayoti yuksak darajada rivojlanib, savdo-sotiq, hunarmandchilik va ilm-fan taraqqiy etgan. Xorazm shaharlari nafaqat mintaqa, balki butun Sharq sivilizatsiyasining ajralmas qismi bo‘lib, ularning tarixini o‘rganish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur mavzuni o‘rganishda manbashunoslik va tarixshunoslik alohida o‘rin tutadi. Chunki o‘rta asr mualliflari tomonidan yozib qoldirilgan arab, fors va turkiy manbalar Xorazm shaharlari haqida qimmatli ma’lumotlar beradi. Shu bilan birga, zamonaviy arxeologik tadqiqotlar ham tarixiy haqiqatni yanada aniqroq tiklashga xizmat qiladi. Tarixshunoslik esa ushbu masalaning turli davrlarda qanday o‘rganilganini, ilmiy qarashlar va yondashuvlarning rivojlanishini tahlil qilish imkonini beradi.

Shu bois, Xorazmning IX–XV asrlardagi shaharlari tarixini manbashunoslik va tarixshunoslik asosida o‘rganish bugungi kunda dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

ASOSIY QISM

Xorazmning IX–XV asrlardagi shaharlari tarixini o‘rganishda manbashunoslik muhim ahamiyat kasb etadi. Bu davrga oid ma’lumotlar asosan arab, fors va turkiy tillarda yozilgan tarixiy asarlarda o‘z aksini topgan. O‘rta asr mualliflari Xorazmning yirik shaharlari, ularning geografik joylashuvi, siyosiy ahvoli, iqtisodiy hayoti va madaniy taraqqiyoti haqida muhim ma’lumotlar qoldirganlar. Ayniqsa, savdo yo‘llari ustida joylashgan shaharlarning rivoji, ularning Buyuk Ipak yo‘lidagi o‘rni alohida ta’kidlanadi. O‘rta asr mualliflari asarlarida Xorazm savdo shaharlari, xususan, Urganch o‘z davrining yirik savdo markazlari, Xorazm (ko‘proq Shimoliy Xorazm) esa bu davrning eng boy va iqtisodiy rivojlangan mintaqalaridan biri sifatida yana tilga olinadi. Ammo mo‘g‘ullar istilosidan keyin Xiva xoni Abulg‘oziygacha yozilgan yozma manbalar juda kam va bu muammo biryoqlama yoritilgani ko‘rinib turibdi. Shu bilan birga, bu manbalar ayrim ziddiyatli olimlar uchun Xorazm savdo shaharlarining XV asrgacha bo‘lgan davrdagi mavqei haqida aniq ma’lumotlar olishda qiyinchilik tug‘diradi. Mo‘g‘ullar istilosidan keyingi Xorazm haqidagi ma’lumotlar hozir Yevropa manbalarida mavjud. XIII-XIV asrlarda turli sabablarga ko‘ra yevropalik sayyohlar Plano Karpini (1246-yilda kelgan), aka-uka Polo (1260-yilda kelgan), italiyalik savdogar Franchesko Balduchchi Pegoletti (1340-yilda kelgan) turli sabablarga ko‘ra Xorazmga borganlar.) Xorazm, xususan, Urganch shaharlari haqida qimmatli ma’lumotlar mavjud. XIX asr manbalariga rus geograf, etnograf, tarixchi, rassom, harbiy topograf va sayyohlari asarlari mansub bo‘lib, ular jumlasiga: A.V. Butakov, G. Baziner, G.I. Danilevskiy, V.V. Grigoryev, N.I. Veselovskiy, V.V. Bartold, V.G. Tizengauzen, A.L. Kun, A.N. Samoylovich, M.I. Ivanin, V.V. Velyaminov-Zernov, M.N. Galkin, N.V. Xanikov, A.I. Levshin, P.I. Nebolsin, N.S. Nikitin, A.V. Kaulbars va shu kabi bir qancha olimlar asarlarini kiritish mumkin. Bular orasida, ayniqsa, V.V. Grigoryev, N.I. Veselovskiy, V.V. Bartold va V.G. Tizengauzen asarlari Xorazmning X-XV asrlardagi savdo shaharlari to‘g‘risidagi o‘rta asrlar manbalaridagi ma’lumotlarni keltirilganligidan va o‘rganishdan tashqari, ularni tanqidiy o‘rganish borasidagi ilk urinishlar bo‘lganligi bilan ham qimmatlidir. Yevropaning boshqa mamlakatlari olimlari ichida ham ba’zilar o‘z asarlarida Xorazm savdo shaharlari, ularning joylashgan o‘rni, iqtisodiy ahvoli va boshqa mamlakatlar savdo shaharlari orasida egallagan mavqei to‘g‘risida ma’lumotlar keltirish bilan birga, o‘z fikrlarini ham bildirishga harakat qilganlar. Masalan, ingliz sayohatchisi G. Lansdell esdaliklarida Xorazm yodgorliklariga bag‘ishlangan bo‘lim ham mavjud. Ammo shuni qayd qilish lozimki, Lansdell Xorazm yodgorliklarining to‘liq tafsilotini keltirib o‘ta olmagan. Yana bir muallif – G. Le Strenj, o‘zining musulmon dunyosining sharqida joylashgan davlatlardagi yodgorliklarga bag‘ishlangan asarida Xorazm shaharlarini ham tasvirlab o‘tadi. G. Le Strenj tomonidan tuzilgan kartada, o‘rta asrlar

mualliflari ma'lumotlari asosida Jurjon (Urganch), Kat, Mizdahqon, Hazorasp, Xiva shaharlari va bir qancha karvonsaroylar hamda manzilgohlar ko'rsatib o'tilgan edi. XIX asr mashhur golland sharqshunosi de Guye ham Xorazm savdo shaharlarini o'rganib, ular haqida bir qancha asarlar yozib qoldirgan. Mashhur boshqird tarixchi olimi va siyosiy arbobi Ahmad Zakiy Validiy To'g'onning asarlari ham keyingi vaqtlarda katta qiziqish uyg'otmoqda. Ahmad Zaqiy Validiy To'g'on ham X-XV asrlar Xorazm savdo shaharlari to'g'risida qimmatli ma'lumotlar beradiki, bu borada hatto V.V.Bartold va M.Tomasheklarning toponimik nomlarni o'qish borasidagi bir qancha xatolarini ko'rsatib o'tgan.

XULOSA

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda tarix faniga bo'lgan munosabat boshqa sohalar singari ancha o'zgardi. Ayniqsa, yurtimizning IX-XV asr ilm-fan rivoji davrida sodir bo'lgan voqealarini haqqoniy yoritish dolzarb ahamiyatga ega bo'ldi.

Mustakillik yillarida olimlar tomonidan olib borilayotgan keng kulamli tadqiqotlar ajdodlarimizning boy tarixga, uziga xos milliy davlatchilikka, betakror ma'naviy merosga ega bulganligini kursatmokda.

IX-XII asrlar O'rta Osiyo tarixida madaniy uyg'onish davri sifatida ajralib turadi. Bu davr, asosan, Xorazmshohlar va Temuriylar ostida bo'lib, ilm-fan, adabiyot, san'at va madaniyatning rivojlanishi bilan ajralib turadi. Bu davrda ilmiy va madaniy taraqqiyotning poydevori yaratilgan va keyingi davrlarga kuchli ta'sir ko'rsatgan.

IX-XV asrlarda Xorazm shaharlari nafaqat savdo-iqtisodiy, balki chuqur madaniy va ma'naviy Uyg'onishga sabab bo'lgan, jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo'shgan, o'zbek va dunyo madaniyatining qiyofasini belgilab bergan.

Xorazmning IX–XV asrlar shaharlari tarixi, manbashunosligi va tarixshunosligini tadqiq etish natijasida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi: Manbalarning o'rni: IX–XV asrlar Xorazm shaharlari haqidagi ma'lumotlar boy va rang-barang manbalar bazasiga ega. Arab geograflari (Al-Istaxriy, Al-Maqdisiy) asarlarida shaharlarning topografiyasi va iqtisodiyoti, Mo'g'ullar davri manbalarida (Ibn al-Asir, Juvayniy) vayronagarchiliklar, Ibn Battuta kabi sayyohlar xotiralarida esa XIV asrdagi qayta tiklanish jarayonlari aniq faktlar bilan yoritilganligi aniqlandi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ahmedov, B. A. O'zbekiston tarixi: O'quv qo'llanma / B. A. Ahmedov. – Toshkent: O'qituvchi, 1996. – 400 b.
2. Asimov, M. S. Abu Ali ibn Sino / M. S. Asimov. – Toshkent: Fan, 1980.
3. Beruniy, Abu Rayhon. Tanlangan asarlar. I jild. / Abu Rayhon Beruniy. – Toshkent: Fan, 1968.

4. Мухаммад ан-Наршахий, **Таърих-и Бухоро**, А.А. Ахмедов таърири остида (Тошкент: Фан, 1992), 102-б.
5. Belenitskiy A.M., Bentovich I.B., Bolshakov O.G. Средневековый город Средней Азии. — Leningrad: Nauka, 1973. — В. 112.